



MUZRABOT

O'zbekiston—
kelajagi
buyuk
davlat

Gazeta 1969-yil 1-iyuldan chiqa boshlagan
Ijtimoiy-siyosiy gazeta

Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi va tuman hokimligining nashri

2026-yil 31-yanvar
Shanba № 2 (4522)

Халқ депутатлари туман Кенгаши сессияси

Халқ депутатлари Музра-
бот тумани Кенгашининг ўн
олтинчи сессияси бўлиб
ўтди. Сессия ишида халқ де-
путатлари туман Кенгаши де-
путатлари ҳамда кун тартиби-
даги масалаларга алоқадор
корхона, муассаса ва ташки-
лотлар раҳбарлари иштирок
этидилар.

Сессияда “Ўзбекистон Рес-
публикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан 2025
йил 5 март куни Коррупцияга
қарши курашиш миллий кен-
гаши маслисида белгилаб
берилган устувор йўналиш-
лардан келиб чиқиб, туманда
жиноятчиликнинг олдини
олиш ва коррупцияга қарши
курашиш муҳофазат олиб бо-
рилган ишлар ва келгусидаги
устувор вазифалар ҳамда
туманда криминоген вазият-
ни яхшилаш, жиноятларни
барвақт олдини олиш, омил-
ларни бартараф этиш юза-
сидан 2025 йил давомида
кўрилган чоралар тўғрисида”
туман прокурори И.Хўжамур-
дов, “Туманда ҳуқуқбузарлик-
ларни олдини олиш ва улар-
нинг профилактикаси ҳолати
ҳақида, шунингдек, жамоат
хавфсизлиги бўйича олиб бо-
рилган ишлар тўғрисида” ту-

ман ички ишлар бўлими бош-
лиги Ф.Бадалов маъруза қил-
дилар.

Сессияда, шунингдек, халқ
депутатлари туман Кенгаши-
нинг доимий комиссиялари
томонидан муҳофазат этилган:
“2025 йил тўртинчи чора-
ги якунида жамоатчилик фик-
ри асосида шакллантирилган
тадбирларни молиялаштири-
шга йўналтирилган маблағ-
ларнинг ҳисоботи тўғриси-
да”ги;

“2025 йил давомида туман-
да ёшлар муаммоларини
ўрганиш, уларни ҳал этишга
кўмаклашиш, ёш авлоднинг
истеъдоди ва қобилиятини
ривожлантириш учун қўшим-
ча шарт-шароитлар яратиш
чораларини кўришга қаратил-
ган ишлар тўғрисида”ги;

“2025 йил давомида туман
тибиёт бирлашмаси раҳбари-
нинг ҳудудда соғлиқни сақлаш
ни ривожлантиришга оид дав-
лат дастурларининг бажарили-
ши, касалликлар профилакти-
касининг ҳолати, соғлом турмуш
тарзини ва тўғри овқатланиш
шакллари, шунингдек,
соғлиқни сақлашнинг асосий
кўрсаткичлари юзасидан ҳис-
оботи тўғрисида”ги;

“2025 йил давомида туман-

даги давлат органлари ва
ташкilotларининг норма
ижодкорлиги фаолияти ҳамда
ҳуқуқни қўллаш амалиётининг
ҳолати юзасидан туман адлия
бўлими бошлигининг ахбороти
тўғрисида”ги;

“Туман экология, атроф-му-
ҳитни муҳофазат қилиш ва
иқлим ўзгариши бўлими то-
монидан 2025 йил давомида
атроф-муҳитни муҳофазат
қилиш, табиий ресурслардан
оқилона фойдаланиш ва улар-
ни қайта тиклаш борасида
амалга оширилган ишлар
тўғрисида”ги;

“2025 йил давомида туман
ички ишлар бўлими бошлиги
ўринбосари томонидан жиноят-
чиликка қарши кураш, унинг
олдини олиш, фуқаролар хавф-
сизлиги ва жамоат тартиби-
ни сақлаш борасида амалга
оширилган ишлар тўғрисида”-
ги масалалар кўриб чиқилди.

Сессияда депутатлар “Халқ
депутатлари Музrabot тумани
Кенгашининг “Халқ депу-
татлари Музrabot тумани
Кенгаши доимий комиссия-
ларини тузиш ва шахсий тар-
тибни тасдиқлаш тўғрисида”
2024 йил 2 декабрдаги VII-2-
08-8-115-К/24-сон қарорининг
4-иловасига ўзгартириш ва

қўшимчалар киритиш ҳақида”-
ги, “Халқ депутатлари Музра-
бот тумани Кенгашининг
“Ўзбекистон “Миллий тикла-
ниш” демократик партиясидан
сайланган депутатларнинг
партия гуруҳини рўйхатга
олиш тўғрисида” 2024 йил 8
ноябрдаги VII-1-03-8-115-К/24-
сон қарорининг 4-иловасига
ўзгартириш ва қўшимчалар
киритиш ҳақида”ги, “Халқ де-
путатлари Музrabot тумани
Кенгашининг “Халқ депутатла-
ри Музrabot тумани Кенга-
шининг “Коррупцияга қарши
курашиш бўйича Музrabot ту-
мани кенгашининг Низоми ва
тартибини тасдиқлаш тўғри-
сида” 2023 йил 14 февралда-
ги VI-55-35-8-115-К/23-сон
қарорининг 2-иловасига
кўзгартириш ва қўшимчалар
киритиш ҳақида”ги, 2025 йил
28 февралдаги VII-6-28-8-115-
К/25-сон қарорининг иловаси-
ча ўзгартириш ва қўшимчалар
киритиш тўғрисида”ги қаро-
ри лойиҳаларини кўриб чиқ-
дилар.

Сессияда депутатлар кун
тартибидан муҳофазат қилинган
масалалар юзасидан ўз муно-
сабатлари, тақлиф ва муло-
ҳазаларини билдирдилар.

Сессияда муҳофазат қилин-
ган барча масалалар юзаси-
дан қарорлар қабул қилинди.
Шу билан халқ депутатла-
ри туман Кенгашининг ўн ол-
тинчи сессияси ўз ишини
яқунлади.

«2026 йил – Маҳаллани ривожлантириш ва
жамиятни юксалтириш йили»

ҲАЁТБАХШ ВА ДОЛЗАРЪ ЙЎНАЛИШЛАР

Хабарингиз бор, мух-
тарам Президентимиз Шавкат
Миромонович Мирзиёев
Олий Мажлис ва Ўзбеки-
стон халқига 2026 йил учун
Мурожаатнома тақдим этди.
Шу муносабат билан рес-
публикамиз пойтахтида
бўлиб ўтган катта анжуман-
да Юртбошимиз таъкидла-
ганидек, кейинги тўққиз
йилда давлатимиз ва халқ-
қимиз мислсиз тараққиёт
йўлини босиб ўтди. Мам-
лакатимиз иқтисодиёти ян-
гидан шаклланди, бозор му-
носабатлари, ижтимоий
ҳимоя қўламини янада кен-
гайди, қонун устуворлиги
мустаҳкамланди.

Энг муҳими, амалга оши-
рилган ислохотлар самараси
хар бир маҳаллада, ҳар
бир хонадон ва ҳар бир ин-
сон кундалик ҳаётида ҳис
этилмоқда. Умуман айтган-
да, ислохотларни аниқ амал-
ий натижага айлантириши-
ни ўргандик. Бунинг тасди-
ғини тобора янгича қиёфа
касб этиб бораётган шаҳар
ва қишлоқларимизнинг, за-
монвий корхоналар, савдо-
сервис масканлари, мактаб,
боғча ва шифохоналар,
обод кўча ва маҳаллалар,
транспорт-логистика
тизими, рақамли хизматлар
мисолида яққол кўриш мум-
кин, деди давлатимиз раҳ-
бари. Бундай юксак нати-
жалар Мурожаатномада
кўплаб мисоллар ёрдамида
очиклаб берилди.

Мурожаатномада қайд
этилганидек, маҳалла ва
яхши қўшничилик ўзаро уй-
гун кадрларидир. Улар
жамиятда инсоний ва ижти-
моий капитални янада бой-
итишга беқиёс ҳисса
қўшади. Мамлакатимизда
яшаётган ҳар бир фуқаро
ўзини маҳалла жамоаси-
нинг бир қисми деб ҳисоб-
лаши ҳам шундан далолат



беради. Халқимиз ўтмишда
қандай оғир синовларга дуч
келмасин, аввало, бирдам-
ликдан куч олган. Машақ-
қатли кунларда маҳалла
аҳли елкадош бўлиб, қи-
йинчиликларни енгган.
Оила-оилага, қўшни-қўшни-
га кўмак бериб яшаган. Биз
мана шундай ўта ноёб қад-
риятларга доимо содиқ қол-
ган элмиз. Ёш авлодимиз-
ни ҳам айни шу руҳда тар-
биялашимиз керак.

Шундай буюк мақсадлар-
га эришимизда маҳалла
тизимининг ўрни ва таъси-
ри беқиёс. Зотан, маҳалла
тинч ва аҳил бўлса, жамия-
тимиз тинч ва ҳамжихат
бўлади. Маҳалла ривожлан-
са, бутун мамлакат юксал-
лади. Президентимиз мана
шунларнинг барчасини
хисобга олиб, 2026 йилни
юртимизда “Маҳаллани ри-
вожлантириш ва жамиятни
юксалтириш йили” деб
номлашни тақлиф этди.

Таъкидландики, янги йил-
нинг номида белгиланган
устувор вазифаларни амал-
га ошириш учун алоҳида
давлат дастури қабул қили-
нади. Бу дастурда респу-
бликамиздаги 9 мингдан
зиёд маҳаллани, аввало,
меҳр-оқибат, ҳамжихатлик,
адолат ва тарбия маскани-
га айлантириш каби дол-

зарб масалалар ўз ифода-
сини албатта топади.

Мухтарам Президентимиз
Мурожаатноманинг асосий
қисми – 2026 йилда амал-
га оширилаётган энг муҳим
6 та устувор йўналишдан
ибораат дастур ҳақида ат-
рофлича тўхталиб ўтди:

– **биринчи устувор
йўналиш** – маҳалла инф-
ратузилмасини янада яхши-
лаш, уларга Янги Ўзбеки-
стон қиёфасини олиб кириш;

– **иккинчи устувор
йўналиш** – иқтисодиётни
технологик ва инновацион
ўсиш моделига ўтказиш;

– **учинчи устувор йўна-
лиш** – ички бозорда та-
лабни рағбатлантириш;

– **тўртинчи устувор
йўналиш** – касбларни ри-
вожлантириш ва янги меҳ-
нат бозори архитектураси-
ни яратиш;

– **бешинчи устувор
йўналиш** – экологик муво-
занатни таъминлаш, “яшил”
энергетика ва сув ресурс-
ларидан оқилона фойдала-
ниш;

– **олтинчи устувор
йўналиш** – замонавий дав-
лат бошқаруви ва адолат-
ли суд-ҳуқуқ тизими бора-
сидаги ислохотларни давом
этириш.

Давлатимиз раҳбари дас-
турда кўзда тутилган ана шу
6 та устувор йўналишлар
асосида юртимизда амалга
оширилаётган кенг кўлам-
ли ишлар ҳақида батафсил
мулоҳаза юритиб, бажари-
лиши лозим бўлган вазифа
ва топшириқларни белгилаб
бердилар. Долзарб ва ўта
муҳим бу тадбирлар, жум-
ладан, Музrabot туманида
ҳам шубҳасиз, яқдиллик бил-
лан бажарилади.

**Азамат АҲМЕДОВ,
Ўзбекистон маҳаллалари
уошмаси туман бўлими
бошлиғи.**

Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi QARORI

Muzrabot tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, O'zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida” 2025-yil 25-dekabrda O'zRQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2025-yil 26-dekabrda VII-17-173-8-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 19-noyabrda 207/168-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O'zbekiston Respublikasi-
ning “2026-yil uchun
O'zbekiston Respublikasining
Davlat byudjeti to'g'risida”gi
Qonuni hamda xalq deputat-
lari Surxondaryo viloyati
Kengashining 2025-yil 26-
dekabrda VII-17-173-8-0-K/

25-son qarori (keyingi
o'rinlarda qaror deb yuritiladi)
rahbarlik va ijro uchun qabul
qilinsin.

2. Qarorga muvofiq,
Muzrabot tumani byudjetining
2026-yilgi daromadlari 116,8
milliard.so'm va xarajatlari esa

116,8 milliard so'mga
ma'lumot uchun qabul
qilinganligi hamda viloyat
byudjetidan ajratiladigan
parlament byudjetidan
ajratiladigan cheklangan
miqdorlari 2-ilovaga muvofiq,
shuningdek, Umumdavlat
solig'laridan Muzrabot tumani
mahalliy byudjetiga ajratmalar
me'yori 2026-yil uchun 3-
ilovaga muvofiq, tuman
mahalliy byudjetlarining 2025-
yil daromadlari va
xarajatlarining chegaraviy
hajmi 4-ilovaga muvofiq
hamda 2025-yil uchun tuman
mahalliy byudjetida yo'l
qo'yiladigan eng kam
mablag'lar miqdori 5-ilovaga
muvofiq tasdiqlansin.

(Davomi 2-betda.)

birinchi darajali byudjet
mablag'larini taqsimlovchilarga
ajratiladigan parlament
ajratmalarining cheklangan
miqdorlari 2-ilovaga muvofiq,
shuningdek, Umumdavlat
solig'laridan Muzrabot tumani
mahalliy byudjetiga ajratmalar
me'yori 2026-yil uchun 3-
ilovaga muvofiq, tuman
mahalliy byudjetlarining 2025-
yil daromadlari va
xarajatlarining chegaraviy
hajmi 4-ilovaga muvofiq
hamda 2025-yil uchun tuman
mahalliy byudjetida yo'l
qo'yiladigan eng kam
mablag'lar miqdori 5-ilovaga
muvofiq tasdiqlansin.

Ёшлар билан учрашув

Муаммолар ўрганилмоқда



Ўзбекистон Республикаси
Президенти маслаҳатчиси
Р.Давлетов раҳбарлигида
видеослектр тарзида ўтка-
зилган йиғилишда масъул
ҳодимларга брикирилган
ёшлар билан ишлаш ва улар
ўртасида олиб борилаётган
профилактик тадбирлар са-
марадорлигини ошириш ва-
зифаси юкланган эди.

Шу муносабат билан Халқ-
обод кўрғонидаги маданият
марказида туман ички иш-
лар бўлими бошлиғи под-
полковник Ф.Бадалов ёшлар
билан учрашди. Тадбирда,
жумладан, туманда ёшлар
бандлигини таъминлаш, тар-
бияси оғир ёшлар билан иш-
лашда ҳудудларда амалга
оширилаётган ишлар, бу бо-
радаги муаммолар ҳамда

уларнинг ечимини топиш
бўйича белгилаётган вазифа-
лар хусусида сўз юритилди.
Шунингдек, ички ишлар
органларида ёшлар билан
ишлаш тизимини янги дара-
жага олиб чиқиш, уларни иж-
тимоий қўллаб-қувватлаш,
касб-хунарга ўргатиш ҳамда
тадбиркорлик фаолиятини
йўлга қўйишда мутасадди
идора ва ташкilotлар билан
ҳамкорликда манзилли иш-
ларни ташкил этишга ало-
ҳида урғу берилди.

Туманда ИИБ бошлиғи
иштирокида оталикча олин-
ган ёшлар муаммоларини
ўрганиш жараёни давом эт-
тирилмоқда.

**С.КУЛБОБОВ,
Суратда: учрашув жара-
ёнидан лавҳа.**

AHOLI VA
QISHLOQ XO'JALIGINI
RO'YXATGA OLISH

2026

**BIRGA RO'YXATDAN O'TAMIZ –
BIRGA KELAJAKNI QURAMIZ!**

2026-YIL 15-YANVARDAN 28-FEVRALGACHA

Ro'yxatga olish: bugun – burch, ertaga – mehnat natijasi

Ma'lumki, O'zbekiston
Respublikasi Prezidentining
“O'zbekiston Respublikasida
aholi va qishloq xo'jaligini
ro'yxatga olish tadbirini
o'tkazish to'g'risida” 2025-yil
19-sentabrda PF-173-son
Farmoniga muvofiq, 2026-yil
15-yanvar – 28-fevral kunlari
mamlakatimizda muhim va
keng qamrovli jarayon amalga
oshirilmoqda. Bu tadbir
nafaqat bugungi kunni hisobga
olish, balki ertangi taraqqiyot
yo'lini aniq belgilashga xizmat
qiladigan muhim bosqichdir.

Men ta'lim sohasi vakili
sifatida ushbu jarayonning
ahamiyatini nafaqat
mutaxassislik nuqtai nazaridan,
balki yoshlar bilan bevosita

muloqotda bo'lib ishlovchi
pedagog sifatida ham chuqur
anglayman. Chunki bugun
to'planayotgan har bir aniq
va haqiqiy ma'lumot – bu
ertangi avlod ta'limi, ularning
yashash sharoiti, bandligi va
farovon hayoti uchun
mustahkam asosdir.

Ro'yxatga olish jarayoni
orqali aholi soni, ijtimoiy holat,
mehnat resurslari va qishloq
xo'jaligi salohiyati haqida
ishonchli ma'lumotlar
shakllanadi. Bu esa davlatimiz
tomonidan qabul qilinayotgan
qarorlarning hayotga yanada
yaqin, adolatli va samarali
bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa,
yoshlar ta'limi, ilm-fan,
sog'liqni saqlash va hududlarni

rivojlantirishga qaratilgan
dasturlar aynan mana shu
ma'lumotlar asosida
shakllanishi barchamiz uchun
muhimdir.

O'quvchilar bilan ishlash
jarayonida ularning kelajagi,
orzu-intilishlari, hayotga bo'lgan
qarashlari haqida ko'p
o'ylayman. Shu bois, ro'yxatga
olish tadbirini men yurtimiz
kelajagi, farzandlarimiz taqdiri
uchun tashlanayotgan muhim
va mas'uliyatli qadam, deb
bilaman. Bu jarayonda har bir
fuqaroning faol ishtiroki,
berilayotgan ma'lumotlarning
to'g'riligi va xolisligi alohida
ahamiyat kasb etadi.

Ro'yxatga olish – bu
shunchaki raqamlar emas. Bu
– jamiyatimizning bugungi
holatini aks ettiruvchi ko'zgidir.
Ana shu ko'zgu qanchalik tiniq
bo'lsa, kelajak sari
tashlanadigan qadamlarimiz
ham shunchalik puxta va
ishonchli bo'ladi.

Shu bois, barchani mazkur
muhim jarayonga bafarq
bo'lmaslikka, fuqarolik
mas'uliyatini chuqur his etgan
holda faol ishtirok etishga
chorlayman. Chunki bugun
berilgan to'g'ri ma'lumot –
ertangi taraqqiyot, farovon
jamiyat va barkamol avlod
uchun qo'yilgan muhim
poydevordir.

**Nodira
XURSANOVA,
46-umumiy o'rta ta'lim
maktabining ona tili va
adabiyot o'qituvchisi.**

Ijtimoiy ximoya

Сайёр қабул ўтказилди



Туманимиздаги Йўлчи ма-
ҳалласида Ўзбекистон Респу-
бликаси Иқтисодиёт ва молия
вазирлиги ҳузуридаги бюд-
жетдан ташқари Пенсия жам-
ғармаси Сурхондарё вилояти
бошқармаси раҳбариятининг
сайёр қабули бўлиб ўтди. Унга
жамғарманинг туман бўлими
масъул ходимлари, тегши-
ли корхона, ташкilot ва муасс-
салар раҳбарлари, маҳалла
фаоллари, пенсия масаласида
муаммоси бор ҳамда шахсий
саволлар билан мурожаат қил-
моқчи бўлган фуқаролар қат-
нашдилар.

Тадбирда Пенсия жамғар-
маси вилоят бошқармаси
бошлиғи Х.Нормаматов ишти-
рокчиларга нима сабабдан
сайёр учрашувлар ташкил эти-
лаётганлиги ва бундан кўзлан-
ган мақсад ҳақида батафсил
тушунча берди. Шунингдек,
бугунги кунда пенсия таъми-
нотидаги энг сўнги ўзгари-
риш ва қўшимчалар, долзарб

муаммолар ҳамда уларнинг
ечимлари юзасидан атрофлича
тўхталиб ўтди.

Сайёр қабул республика-
миз миқёсида олиб борилаёт-
ган барча ислохотлар халқ ман-
фаатларига хизмат қилиши,
давлатимиз раҳбарининг мак-
сади кучли ижтимоий ҳимоя
эканлиги, шу билан бирга фуқ-
ароларнинг ижтимоий ҳимоя-
сига алоҳида эътибор бери-
лаётганлиги таъкидланди.
Бунда албатта, Ўзбекистон
Республикаси “Фуқаролар-
нинг давлат пенсия таъмино-
ти тўғрисида”ги Қонуни ва
қонуности ҳужжатлари муҳим
аҳамият касб этаётгани ту-
шунтирилди.

Қабул жараёнида фуқаро-
лардан тушган саволлар қонун
талаби асосида рўйхатга оли-
ниб, ижроси бўйича масъул
мутасассисларга топшириқлар
берилди.

**Суратда: сайёр қабул жа-
раёнидан лавҳа.**



Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi QARORI

Muzrabot tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida

(Boshlanishi 1-betda.)

4. Tuman byudjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2026-yil uchun 1,4 milliard so'm miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg'armasi mablag'larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirila-yotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi ta'minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari S.Xolnizozov, tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Muxammadiyev), tuman soliq inspeksiyasi (A.Rahmonqulov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

6. Hududiy byudjet mablag'

larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag'larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilar: byudjetdan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to'liq rejalashtirilishi va o'z vaqtida to'lanishi;

o'zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlari smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to'g'ri tuzilishi; byudjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi va

Kengash raisi

2025-yil 30 dekabr VII-15-130-8-115-K/25

A.MAMATQULOV

Muzrabot tumani

maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag'larning to'g'ri taqsimlanishi;

o'z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini; byudjet jarayonining ochiq-ligini ta'minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni joylashtirib borilishini ta'minlansinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsia etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

Kengash raisi

2025-yil 30 dekabr VII-15-130-8-115-K/25

A.MAMATQULOV

Muzrabot tumani

Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashining 2025-yil 30-dekabrda VII-15-130-8-115-K/25-son qaroriga 1-ilova

Muzrabot tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yilgi asosiy prognoz ko'rsatkichlari

ming so'mda		
T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		116820750,0
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	44 690 100
2	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	850 000
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 787 000
4	Qo'shilgan qiymat solig'i	2 023 700
5	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	15 270 000
6	Qurilish materiallari bo'yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	1 080 000
7	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6 873 600
8	Foyda solig'i mahalliy	2 049 600
9	Aylanmadan soliq	2 966 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	25 283 000
11	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	8 263 000
12	Davlat boji mahalliy	1 309 750
13	Jarimalar	1 347 900
14	Yig'imlar mahalliy	827 100
15	Davlat mulki bo'yicha ijaraga to'lovlari	200 000

Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashining 2025-yil 30-dekabrda VII-15-130-8-115-K/25-son qaroriga 2-ilova

2026-yil uchun Muzrabot tumani byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so'mda		
No	Ko'rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		116820750,0
1.	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar Tuman va shahar mahalliy byudjetlariga transfertlar	116 820 750,0
	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga (umumiy ta'lim)	33 874 961,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar shundan: "Menning maktabim" jamg'armasiga ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	33 874 961,0
2.	Madaniyat tizimi tashkilotlariga	1 755 170,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar shundan: ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 755 170,0
3.	Bolalar musiqa va san'at maktablari	3 782 899,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	3 782 899,0
4.	Sport bo'limiga	6 250 434,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	6 250 434,0
5.	Zaxira jamg'armasiga	1 425 000,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 425 000,0
6.	Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazlarining saqlash xarajatlari	618 734,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	618 734,0
7.	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi tashkilotlari	2 205 279,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	2 205 279,0
8.	Irrigatsiya tizimiga	3 038 512,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	3 038 512,0
9.	Obodonlashtirish boshqarmasiga	17 401 581,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar lchki yo'llarni saqlash xarajatlari uchun ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	17 401 581,0
10.	"Mahalla byudjeti" jamg'armasi mablag'lari	4 509 067,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	4 509 067,0
11.	Yoshlar ishlar bo'limi saqlash xarajatlari	3 084 118,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	3 084 118,0
12.	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi saqlash xarajatlari	1 846 072,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 846 072,0
13.	Davlat boshqaruv hokimligi saqlash xarajatlari	12277 032,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar shundan: Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi saqlash xarajatlari Qishloq xo'jaligi bo'limi saqlash xarajatlari Qurilish va uy-joy komunal xo'jaligi bo'limi saqlash xarajatlari Oila va xotin-qizlar bo'limi saqlash xarajatlari ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	12 277 032,0
13.1	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi saqlash xarajatlari	166 129,0
13.2	Qishloq xo'jaligi bo'limi saqlash xarajatlari	1 041 749,0
13.3	Qurilish va uy-joy komunal xo'jaligi bo'limi saqlash xarajatlari	520 765,0
13.4	Oila va xotin-qizlar bo'limi saqlash xarajatlari	1 950 841,0
14.	Iqtisodiyot va moliya bo'limi saqlash xarajatlari	2 553 926,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	2 553 926,0
15.	Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	30 237,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	30 237,0
16.	Axborot kutubxona markazlarini saqlash xarajatlari	831 633,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	831 633,0
17.	Hayvon kasalliklar tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xafsizligi markazlarining saqlash xarajatlari	513 646,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	513 646,0
18.	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi (ochiq byudjet portaliga)	18793 080,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	18 793 080,0
19.	Ijtimoiy moslashuv markazlari	134 651,0
	shu jumladan: joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	134 651,0

Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashining 2025-yil 30-dekabrda VII-15-130-8-115-K/25-son qaroriga 3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Muzrabot tumani mahalliy byudjetiga ajratmalar me'yori 2026-yil uchun

foiz hisobida																
T/r	Tumanlar nomi	Qo'shilgan qiymat solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	Foyda solig'i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	Qurilish materiallari bo'yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat boji	Jarimalar	Yig'imlar	Aylanmadan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	Davlat mulki bo'yicha ijaraga to'lovlari
1	Muzrabot tumani	50	78	100	80	100	100	100	100	31	30	30	100	100	100	100

Izoh: 1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag'lari tuman va shaharlar hamda viloyat byudjeti o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

2. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 890, 3 450 891, 3 450 892 daromad kodi bo'yicha) tushgan pul mablag'lari tuman byudjetiga qoldiriladi.

3. Yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan barcha soliqlar (mol-mulkni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i (bundan mustasno), soliqlik tushumlar hamda yuqorida ko'zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat byudjetiga yo'naltiriladi.

Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashining 2025-yil 30-dekabrda VII-15-130-8-115-K/25-son qaroriga 4-ilova

Muzrabot tumani mahalliy byudjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi

ming so'mda		
Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	116 820 750,0	116 820 750,0
Muzrabot tumani	116 820 750,0	116 820 750,0

Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashining 2025-yil 30-dekabrda VII-15-130-8-115-K/25-son qaroriga 5-ilova

Tuman mahalliy byudjetida yo'l qo'yiladigan eng kam mablag'lar miqdori 2026-yil uchun

ming so'mda		
T/r	Hudud nomi	Miqdor
JAMI		296 250,0
1	Muzrabot tumani	296 250,0

Терроризм

Сиёсий кураш усули

Барчамизга маълумки, хозирги кунда терроризм ва экстремизм бутун жаҳон мамлакатларининг тинчлиги ва хавфсизлиги, диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувлигига жиддий таҳдид солиб келаётган асосий иллатлардан бири бўлиб келмоқда. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, ушбу муаммо билан курашиш, оғир оқибатларга олиб келишининг олдини олиш йўлида, дунёнинг барча давлатлари биргаликда, турли тор геосиёсий манфаатлардан воз кечиб, ҳаракат қилинса кўзланган мақсадга эришиш мумкинлиги айнан ҳақиқатдир.

виклар томонидан юритилган ички сиёсатида кўриш мумкин. Терроризм турли шаклларда намоён бўлади. Сиёсий терроризм, иқтисодий терроризм, ижтимоий терроризм, инфорацион терроризм, диний терроризм, миллатчилик терроризми. Аммо улар қандай шаклларда намоён бўлмасин, уларнинг мазмун-моҳияти битта – маънавий таъазул ва ғайрининсонийлик.

Халқаро терроризм давлатлар, халқаро ташкилотлар, сиёсий партия ва ҳаракатларни беқарорлаштиришга қаратилган сиёсий кўпуровчилик фаолиятини



“Террор”- (terror) атама-си лотин тилидан олинган бўлиб, “қўрқув”, “даҳшат” маъносини англатади. Терроризм – жамиятда беқарорлик келтириб чиқариш, аҳолининг кенг қатламларида ваҳима ва кўрқув уйғотишга қаратилган сиёсий курашнинг ўзига хос усулидир.

Терроризмнинг энг асосий хусусиятларидан бири “зўрлик давлатни кулатувчи ва ҳокимиятга эришишни осонлаштирувчи парокандаликка олиб келади”, деган ғояга асосланиб ҳаракат қилишидир. Иккинчи хусусияти ҳеч қандай уруш бўлмаётган, тинчлик ҳукмронлик қилаётган, жамиятда демократик институтлар фаолият кўрсатаётган бир шароитда муқобил усулларни атайин инкор этган ҳолда, сиёсий масалаларни зўрлик йўли билан ҳал қилишга интилишда кўринади. Хозирги даврда террор ўзининг қўлама, мақсади, турли воситалари жиҳатидан муайян бир давр, тарихий шароит, мамлакат, шахсга қаратилганлиги билан ҳар қандай чегарадан чиқиб, халқаро миқёсда ижтимоий ҳодисага айланиб бормоқда.

Инсоният тарихида сиёсий террорнинг дастлабки шаклланиши 1917 йил Россияда октябрь тўнтарышидан кейинги йилларда больше-

ифодалайди. Энг асосий белгилари: 1) халқаро ҳуқуқ ҳимоясидаги объект ва субъектларга қарши қаратилганлиги; 2) давлатлар чегараларини бузиш орқали амалга оширилиши; 3) аъзолари икки ёки ундан ортқ давлат фуқаролари, шу жумладан, ёлланма шахслар бўлган экстремистик гуруҳлар томонидан содир этилиши; 4) экстремистик гуруҳлар таркибиде кўпуровчилик ҳаракатлари бўйича хорижий йўриқчиларнинг қатнашиши; 5) экстремистик гуруҳ аъзоларининг бошқа давлатлар ҳудудида ташкил этилган махсус лагерларда тайёргарлик кўриши; 6) тайёргарлик кўриш ва кўпуровчиликни содир этишда хорижий давлатлар ва экстремистик уюшмалар ёрдами билан, халқаро тус олган ноқонуний курул-яроғ савдоси, нарқобизнесдан келадиган молиявий манбалардан фойдаланиши.

Подполковник Адам ЖУМАЕВ, Ўзбекистон Республикаси ИИБ тезкор қидирув департаменти жиноят қидирув бош бoshqармаси оператив ходими.

Майор Акбар ХИДИРОВ, Мuzrabot tumani ИИБ тезкор қидирув хизмати ходими.



Муносабат

Президент қарори билан

«ЎЗБЕКИСТОН – 2030»: ХАЛҚ ФАРОВОНЛИГИ ЙЎЛИДАГИ ДАДИЛ ҚАДАМЛАР

Маҳаллалар масъул раҳбарларга бириктирилади

Маълумки, 2023 йилда мамлакат тараққиётининг ўрта муддатли устувор йўналишларини аниқ белгилаб берган «Ўзбекистон – 2030» стратегияси қабул қилинган эди. Ушбу стратегияда барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш, замонавий таълим ва тиббиёт тизимини шакллантириш, аҳолининг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш, экологик барқарорликка эришиш, халқ хизматидаги адолатли ва самарали давлатни барпо этиш ҳамда миллий суверенитет ва хавфсизликни мустаҳкамлаш давлат ва жамиятни модернизация қилишнинг асосий устувор йўналишлари сифатида белгиланди.

«Ўзбекистон – 2030» стратегияси доирасида амалга оширилган ислохотлар қисқа вақт ичида сезиларли ижтимоий-иқтисодий натижаларни берди. Хусусан, камбағаллик даражасининг 11 фоиздан 5,8 фоизгача пасайиши, яъни ички маҳсулот ҳажмининг 107,5 миллиард доллардан 145 миллиард долларга ўсиши, экспорт ҳажмининг 24,9 миллиард доллардан 33,4 миллиард долларга ошиши, хорижий инвестициялар ҳажмининг 17,1 миллиард доллардан 43,1 миллиард долларга кўпайиши мамлакат иқтисодий салоҳияти мустаҳкамлаб бораётганини яққол кўрсатади. Шунингдек, ишсизлик даражасининг 6,8 фоиздан 4,9 фоизга тушиши, хорижий туристлар сонининг 6,6 миллион нафардан 9,7 миллион нафарга етиши, Ўзбекистоннинг Глобал инновация индексдаги ўрни яхшиланиши, дипломатик муносабатлар ўрнатган давлатлар сони 20 тага орттириб 164 тага етиши мамлакатимизнинг халқаро майдондаги нуфузи орттириб бораётганидан далолат беради.

Бироқ ўтган вақт давомида эришилган натижа ва тажрибадан келиб чиқиб қаралса стратегияни амалга ошириш жараёнида муайян муаммолар ва камчиликлар ҳам мавжуд эканлиги кўзга ташланади. Хусусан, амалдаги 444 та самарадорлик кўрсаткичининг 130 таси топшириқ ва вазифа сифатида белгиланганлиги, 31 таси натижа билан боғлиқ бўлмаганлиги ҳамда 23 тасида натижага эришилганлиги сабабли янги самарадорлик кўрсаткичларини белгилаш зарурати пайдо бўлди. Яъни, стратегик режалаштиришни замон талабларига мос равишда тақомиллаштириш зарур. Қолаверса, бугунги кунда жаҳонда кечаётган глобал ўзгаришлар, халқаро бозорлардаги беқарорлик, технологиялар ва санатнинг жадал ривожланиши, энергия бозорларидаги трансформация ҳамда глобал таъминот занжирларининг қайта шаклланиши Ўзбекистон олдида мураккаб янги вазифаларни қўймоқда. Бу шароитда қўшилган қиймат

занжирларига чуқурроқ қириш, «яшил» иқтисодиётга ўтиш, ресурслардан оқилона фойдаланиш ва экологик барқарорликни таъминлаш стратегик аҳамият касб этмоқда. Шу билан бирга, аҳоли сонининг тез суръатларда ўсиши ҳам янги ёндашувларни талаб қилмоқда. Агар 2023 йилда доимий аҳоли сони 36,7 миллион нафарни ташкил этган бўлса, 2030 йилга келиб ушбу кўрсаткич 41 миллион нафарга етиши прогноз қилинмоқда. Урбанизация жараёни, янги иш ўринлари яратиш, аҳоли даромадларини ошириш ва ҳаёт сифатини яхшилаш масалалари стратегик режалаштиришда устувор ўрин тутади. Шунингдек, глобал рақобат тобора билим ва инновацияларга таянаётган бир пайтда рақамли иқтисодий ривожлантириш, сунъий интеллект, киберхавфсизлик, маълумотларни бошқариш каби соҳаларда тизимли ислохотларни амалга ошириш алоҳида аҳамиятга эга. Бу йўналишлардаги ютуқлар мамлакатимиз рақобатбардошлигини ошириш, юқори қўшилган қийматга эга маҳсулот ва хизматлар яратиш имкониятини кенгайтиради. Шу нуктага назардан, «мақсад – ҳаракат – натижа» занжирига асосланган мураккаб янги стратегик режалаштириш тизимининг жорий этилиши «Ўзбекистон – 2030» стратегиясини янги глобал тенденциялар ва ча-

қириқлар асосида тақомиллаштиришни талаб этмоқда. 2026-2030 йилларга мўлжалланган янги самарадорлик кўрсаткичларини белгилаш, уларни аниқ, ўлчовли ва натижага йўналтирилган ҳолда шакллантириш давлат бошқаруви самарадорлигини оширишга ҳам хизмат қилади. Энг муҳими стратегияни ҳеч иккиланмас ҳалқ ҳужжати дейиш мумкин. Сабаби, «Ўзбекистон – 2030» стратегиясига ўзгартиришлар жамоатчилик муҳокама-си асосида қилинмоқда. Айни кунларда барча фуқаролар стратегия ҳамда стратегия доирасида ишлаб чиқилган 2026 йилги Давлат дастури муҳокама-сида фаол иштирок этиб ўз маҳалласи, ўз ҳудуди ҳамда мамлакатимиз келажаги учун таклифларини билдиришлари мумкин. Умуман олганда, Ўзбекистон Республикаси Президентининг мамлакат тараққиётини 2030 йилгача янги босқичга олиб чиқишга қаратилган Фармони лойиҳаси бугунги мураккаб глобал шароитда миллий тараққиётимизни таъминлашга хизмат қиладиган муҳим дастурий ҳужжат ҳисобланади. Қонунчилик палатаси депутати сифатида ушбу ислохотларни қонунчилик жиҳатидан қўллаб-қувватлаш, уларнинг ҳаётга тўлиқ татбиқ этилиши устидан самарали парламент назоратини амалга ошириш ҳамда халқ билан яқин мулоқотда ишлаш орқали белгиланган юксак мақсадларга эришишга ўз ҳиссамизни қўшишимиз лозим. **Мавлуда АДҲАМЖОНОВА, Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш масалалари кўмитаси аъзоси.** ЎЗА

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026-йил 5-январда «Республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш йўналишида яхлит манзилли ишлаш тизимини жорий этишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 1-сон қарори қабул қилинди.

Ушбу қарорга кўра, маҳаллаларда жиноятчиликнинг барвақт олдини олиш бўйича самарали тизимни йўлга қўйишга қаратилган манзилли ишларни ташкил этиш мақсадида 2026 йилда ҳудудлар масъул раҳбарлар ва муассасаларга қўйиладиган тартибда номма-ном бириктирилади. Жумладан: криминоген вазияти оғир маҳаллалар – туман (шаҳар) ҳокимлари, прокурорлари ҳамда ички ишлар органлари бошлиқлари ва

уларнинг ўринбосарларига; 5 йилдан буюн «қизил» тоифада бўлаётган маҳаллалар – Миллий гвардиянинг ҳудудий бошқармалари бошлиқлари, вилоят даражасидаги ички ишлар органлари раҳбарларининг ва ҳокимларнинг ўринбосарларига; 3 йилдан буюн «қизил» тоифада қолаётган маҳаллалар – ҳуқуқ-тартибот идораларининг таълим ва илмий ташкилотларига; криминоген вазияти энг

оғир туман ва шаҳарлар – вилоятлар даражасидаги прокурорларнинг ва ички ишлар органлари раҳбарларининг биринчи ўринбосарларига; аёллар жиноятчилиги, спиртли ичимлик ва гиёҳвандликка ружу қўйган шахслар жиноятчилиги ҳамда низоли оилалар салмоғи энг юқори бўлган маҳаллалар – тегишчан вилоятлар даражасидаги оила ва хотин-қизлар, соғлиқни сақлаш ҳамда адлия бошқармалари бошлиқларига бириктирилиши белгилаб берилди. **Фахриддин НЕМАТОВ, туман адлия бўлими Юридик хизмат кўрсатиш маркази бошлиғи в/б.**

Хабарингиз борми?

Янги низом рўйхатдан ўтказилди

бу ҳужжат билан нотариал ҳаракатларни видеоконференсалоқа режими орқали амалга ошириш тартиби белгиланди

«Нотариал ҳаракатларни видеоконференсалоқа режими орқали амалга ошириш тартиби тўғрисида»ги Низом Адлия вазирлигида 2026 йил 5 январда 3742-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилди. Мазкур низом билан нотариуслар томонидан жисмоний ёки юридик шахсларнинг вакили нотариал идорасида келмаганда масофадан видеоконференсалоқа режими орқали нотариал ҳаракатларни амалга ошириш тартиби белгиланди. Низомга кўра, нотариал ҳаракатлар видеоконферен-

салоқа режимида «E-notarius.uz» ахборот портали ҳамда «Нотариус» автоматлаштирилган ахборот тизими орқали тасдиқланади. Мурожаат қилувчи нотариал ҳаракатни видеоконференсалоқа режимида амалга ошириш учун электрон тармоқдан фойдаланиш шартлари билан танишди ва розилигини тасдиқлайди. Мурожаат қилувчи электрон тармоқда тасдиқлашни сўраётган нотариал ҳаракатнинг номи аниқ кўрсатади ва зарур маълумотларни

тўлдирди. Нотариус мурожаат қилиб тушган вақтдан бошлаб 1 иш кунига уни ўрганиб чиқади ҳамда унда камчиликлар мавжуд ёки йўқлиги тўғрисида хабарнома юборади. Нотариус билан шахсий мулоқот давомида нотариал ҳаракат тарафлардан жойлашган жойда улардан бошқа шахсларнинг бўлмаслиги, улар жойлашган жой шовқиндан холи, ёруғ бўлиши ва видеотасвир тиниқ кўриниши шарт. Нотариал ҳаракат лойиҳаси имзолаш учун тайёр бўлганда сўнг нотариус томонидан тарафларга уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, амалга ошириладиган нотариал ҳаракатнинг мазмуни ва оқибатлари тунтирилади. **Шерзод ОСТАНАҚУЛОВ, Термиз шаҳрида ҳусулий амалиёт билан шугулланувчи нотариус стажёри.**

Oliy ta'lim taraqqiyotining yangi davri

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son farmoniga muvofiq "O'zbekiston - 2030" strategiyasi tasdiqlanganligi hammamizga ma'lum. Bu hujjat kelgusi yetti yil davomida yurtimizning asosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjat bo'lib, 5 ta ustuvor yo'nalish doirasida 100 ta maqsadga erishishni ko'zda tutadi. Eng muhimi, strategiyaning maqsadlari va samaradorlik ko'rsatkichlari aholi uchun oson qabul qilinarli, tushunarli va amaliy tarzda bayon etilgan. Bu strategiya - nafaqat davlatning rivojlanish yo'li, balki

har bir fuqaroning hayotiga ta'sir qiladigan istiqbol. Ayniqsa, yoshlarimiz, talaba va professor-o'qituvchilar uchun u yangi imkoniyatlar, yangi mas'uliyat va yangi maqsadlarni anglatadi. Chunki "O'zbekiston - 2030" strategiyasining kelajak uchun belgilab berilgan yo'nalishlari orasida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish ham muhim o'rin egallaydi. Oliy ta'lim muassasalarini yanada zamonaviy, raqobatbardosh va sifatli qilish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, eng ilg'or ta'lim standartlarini joriy etish bugungi kun talabidir. Shu nuqtai nazardan, "Sifatli va ommaviy oliy ta'lim - 2030"

dasturini amalga oshirish mamlakatimiz uchun muhim strategik vazifadir. Men, Termiz davlat universiteti tuzatori sifatida, mazkur dastur bo'yicha tashkil etilgan muhokamalarda faol ishtirok etib, o'z fikrlarim va takliflarimni bildirdim. Chunki oliy ta'lim tizimining kelajagi - mamlakatning kelajagi bilan bevosita bog'liq. Mazkur takliflarimni muhokamalarda bayon etganimda, men bir narsani chuqur his qildim: bizning oldimizda faqat ta'lim tizimini yaxshilash emas, balki kelajak avlodning tafakkurini, ularning hayotga munosabatini, yurtga

bo'lgan sadoqatini shakllantirish kabi ulkan vazifa turibdi. Chunki "Sifatli va ommaviy oliy ta'lim - 2030" dasturi orqali ta'lim tizimimiz faqat zamonaviy bo'lib qolmay, balki milliy qadriyatlar, milliy ruh va Vatan sevgisi bilan ham boyitilishi kerak. Shu yo'lda har birimiz - pedagog, talaba, ota-ona va jamoatchilik - o'z hissamizni qo'shishimiz zarur. Kelajakni bugun quramiz va bu qurilishning eng muhim asosi - sifatli ta'limdir. **Jamshid NAZAROV, Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti tuzatori.**

Шифокор оғоҳлантиради

ГРИПП – ЮҚУМЛИ КАСАЛЛИК



лик тўсатдан бошланади. Соғлом юрган одам бирдан мазаси қочиб эти увишади, лоҳас бўлади, ҳарорати кўтарилади. Орадан 1-2 соат ўтгач иситма 39-40° гача кўтарилади. Бемор жунжикиб совуқ қотади, қалтирайдди, кўл-оёқлари зирқираб оғрийди, бурни битиб қолади. Кўзи ёшланади, томоғи оғрийди, куруқ йўтал пайдо бўлади. Грипп билан оғриган беморни касалхонага ётқизиш шарт эмас. Уйда алоҳида хонада ётгани маъқул. Фақат касаллик оғир кечган ҳолларда бемор касалхонага ётқизилади. Касалликнинг оғир-енгил ўтишидан қатъи назар бемор ётиши лозим. Бемор ётган хоналарни дезинфекцияловчи воситалар (хлороамин, хлорли оҳак эритмалари, фармолин кислота ва ишқорлар) тасвирида вируслар тез нобуд бўлади. Хоналар ушбу эритмалар ёрдамида ювилиб, тез-тез шамоллатиб турилиши ва хонага исирқиқ тутатиб туриш ҳам грипп вирусларини ўлдиради. **К.МАМАТКАРИМОВ, туман санитария-эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги бўлими санитария врач.**

Грипп инфекцияси кенг тарқалган ўткир юқумли вирусли касаллик бўлиб, интоксикация ва юқори нафас йўллари шиллик қаватини зарарланиши билан кечади. Яққол интоксикация кузатилади, нерв ва юрак томир системаси фаолияти бузилади. Гриппни вируслар қўзғатади: уларнинг А,А²,В,С турлари маълум. Вируслар вақти-вақти билан антиген тизимини ўзгартириб туради. Жумладан, А турининг ўзида антиген хусусиятига қараб А (H1N1), А (H²N²) антигенли вируслар фарқ қилинади. Юртимизда асосан А, айрим ҳолларда В тури учрайди. Грипп вируслари жуда беқарор, хона шароитида бир неча соатдан сўнг юқиш эҳтимоли йўқолади, қуёш нури таъсирида тез нобуд бўлади, паст ҳароратда, айниқса, ҳаво ҳарорати 0°дан паст бўлганда узоқ сақланади. Шу сабабли грипп касаллиги совуқ мавсумда кўпроқ кузатилади. Инфекция манбаи бемор, у аксирганда, гаплашганда, йўталганда вирус заррачалари ва сўлак томчилари билан атроф-муҳитга тарқатади. Айниқса, касалликнинг дастлабки кунларида вирус бемор организмидан кўплаб ажралиб, яқин атрофдаги одамларга нафас йўллари орқали тушади. Касалликнинг яширин даври жуда қисқа, бир неча соатдан 1-2 кунгача. Касал-

Bozorov Bahodir Baxtiyor o'g'liga 2016-yil 30-iyunda berilgan «B, C» toifali AD № 261219 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI. **x x x** Kambarov O'ral Abdiyevichga 2018-yil 17-martda berilgan «B, C» toifali AA № 0209810 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI. **x x x** Meliyev Izbasar Soatovichga 2025-yilda berilgan AAT № 519087 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI. **x x x** Xudoyberganov Sherali Jumamurotovichga tegishli 1998-yilda ishlab chiqarilgan, davlat raqam belgisi 75 O 356 EA bo'lgan «TICO» rusumli yengil avtomobilga 2022-yil 16-iyunda berilgan AAF № 4730021 raqamli avtomototransport vositasi ro'yoxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomasi yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI.

Ходим ишга чиқдим — қонун ишга тушади

Бугунги кунда меҳнат низоли энг кенг тарқалган низоли турига айланиб улгурган. Ҳар кун рўзгор тебратиш, қора қозонни қайнатиш учун ишга йўл олар эканми, иш жараёнида кўп ҳолларда меҳнатга оид низоли юзага келади. Бундай вазиятларда ҳар бир ходим ўз меҳнат ҳуқуқларини яхши билиши, уларни иш берувчидан талаб қила олиши муҳимдир. Ахир, «қонун ишламайди» — қонун қўлланилади». Демак, ҳуқуқдан фойдаланмаган инсон ўзини ҳимоясиз ҳолатда қолдиради. Афсуски, ҳозирги кунда айрим иш берувчилар ходимларни расмий ҳужжатларсиз — меҳнат шартномасисиз ишга қабул қилиш амалиётига йўл қўйиб келмоқда. Бу эса ходимнинг энг асосий ҳуқуқларидан бири — қонуний меҳнат қилиш ҳуқуқини бузади. Меҳнат кодексининг 128-моддасига мувофиқ, ҳар қандай меҳнат муносабатлари фақат

Хуқуқий мавзуда

меҳнат шартномаси тузилганидан сўнг қонуний кучга киради. Меҳнат кодексининг 103-моддасида келтирилишича, меҳнат шартномаси — бу иш берувчи ва ходим ўртасида тузиладиган, икки томоннинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини белгиловчи келишувдир. Унда ходимнинг меҳнат вазифалари, иш ҳақи миқдори, иш вақти, меҳнат шартнолари, дам олиш тартиби ҳамда зарур имтиёзлар аниқ кўрсатиб ўтилади. Кодекснинг 128-моддаси, шунингдек, шуни белгилайдики, ходим ишга чиққан кундан бошлаб меҳнат шартномаси тузилган деб ҳисобланади. Бироқ иш берувчи меҳнат ишини амалда бажараётган пайтдан эътиборан 3 иш кун ичида шартнома-ни ёзма равишда расмийлаштириши, тегишли буйруқ чиқариши ва бу ҳақда ходимни таништириши шарт.



Амалиётда эса кўп ҳолларда иш берувчилар «кейинроқ расмийлаштирамиз» деб ваъда беришади, натижада меҳнат шартномаси ўз вақтида тузилмайди. Бу эса келгусида ойлик маош тўланмаслиги, иш стажини ҳисоблаш билан боғлиқ муаммолар ёки низолиларни келтириб чиқаради. Баъзан эса ходимни иш берувчи эмас, балки ваколатсиз шахс ишга олган бўлади. Кейинчалик иш берувчи ёки унинг ваколатли вакили ушбу шахс томонидан меҳнат шартномаси ту-

зилиши рад этилиши мумкин. Шундай ҳолатда ҳам ходим меҳнат қилган бўлса, унинг ҳуқуқлари ҳимоя қилинади: иш берувчининг манфаатлари йўлида иш бажарган бўлса, ана шу шахсдан, ҳақиқатда бажарган иш ҳажмидан келиб чиққан ҳолда, унга муносиб ҳақ ундирилади. Меҳнат кодексининг 128-моддаси ходимларнинг меҳнатга оид ҳуқуқларини ҳимоя қилиши, норасмий меҳнат фаолияти тўғрисида иш ҳақи тўланмаслиги ҳолатларининг олдини олишни кўзда тутди. Ушбу норма ходимнинг қонуний ишлашини таъминлаб, меҳнат муносабатларида тенглик ва адолатни ўрнатади. Агар сиз иш жойингизда меҳнат шартномаси тузилмасдан ишлашга киришган бўлсангиз, хавотир олманг — қонун сиз томонда! **Лобоз СУЮНОВА, Тошкент давлат юридик университети 2-босқич талабаси.**



Tavalludining 585 yilligiga

Alisher Navoiy asarlarida komil inson g'oyasi

Alisher Navoiy ijodi insoniyat ma'naviy olamini boyituvchi bitmas-tuganmas xazinadir. Ijodkor asarlarining asosiy g'oyasi-Komil insonni tarbiyalashdan iboratdir. Navoiy nazdida adabiyot ko'ngil dardini to'kib soluvchi, insonga taskin beruvchi vosita emas, balki uni yuksak axloqiy sifatlar egasi tarzida tarbiyalash quroli bo'lgan.



Shoirning har bir asarida insonni ezgulikka chorlash, barcha yomon illatlar-u odatlardan xalos etish asosiy o'rinda turuvchi masaladir. Bu ruh har bir qahramon timsoli orqali inson ongiga, qalbiga singib boradi. 5 dostonni o'z ichiga olgan "Xamsa" asarining ilk dostoni "Hayrat ul-abror" 20 maqolatdan iborat bo'lib, ularning har biri alohida mavzuga bag'ishlangan. Unda to'g'riilik, iymon, insof, karam, adolat, odob, ilm va vafo haqida fikrlar bayoni hamda hikoyatlar insonni ezgu fazilatlar sohibi bo'lishga undaydi.

Shuningdek, ikkinchi doston bo'lmish "Farhod va

Shirin"da ham xuddi shunday xislatlar ulug'langan. Bunda Farhod obrazi vositasida komil inson qanday bo'lishi kerakligi o'z ifodasini topgan. Farhodning shirinso'zligi, birovning dardiga hamdard bo'lib ko'zlaridan duv-duv yoshlar to'kishi, bolaligidan unung o'zgacha sifatlariga ega bo'lishi, 3 yoshida nutqi kattalarnikidek ravon bo'lishi, maktabga borib 6 oyda savod chiqarishi, qisqa muddatda Qur'onni yod olishi, barcha diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallashi, harbiy san'atni, tosh yo'nish, naqqoshlik,

me'morlik kabi hunarlarni ustozlaridan ham mukammalroq darajada o'rganishi, kelajagini ko'rish maqsadida inson bolasi uddalashi amri-mahol bo'lgan yumushlarni uddalay olishi, shahzoda bo'lishiga qaramay, Arman yurtida insonlarga ko'mak berishi, otaga, yaqinlarga nisbatan insofli, adolatli ekanligi, insoniylikni, mol-dunyo va har qanday boylikdan ustun ko'rishi nafaqat o'sha davr odamlariga, balki bizning davrimiz yoshlariga ham o'rnak bo'la oladigan komillik namunasi emasmi? Bu asarda ko'pgina obrazlar majoyi ma'noda qo'llangan bo'lsa-da, u aslida insonni o'z ichki olamini nazorat qila olish, o'z hissiyotlarini boshqara olishga chorlaydigan, ma'naviy kamolot unung yetaklaydigan asardir.

"Xamsa"ning beshinchi-dostoni "Saddi Iskandariy" ham komillik g'oyalarini aks ettiruvchi asarlardan biridir. Bunda Iskandar komil inson-adolatli, bilimdon podshoh sifatida aks ettirilgan. U dunyoni qilich bilan emas,

zakovat bilan boshqargan donishmand hukmdor. U Navoiy orzu qilgan odil davlat boshlig'i obrazidir. U xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ya oladigan timsol sifatida gavdalanitirilgan. Navoiyning "Lison ut-tayr" va "Mahbub ul-qulub" asarlari ham xuddi shunday g'oyalar singdirilgan asarlardandir.

Demak, Navoiy bobomizning barcha asarlari necha asrlar, necha mingyilliklar osha o'z qadr-qimmatini, mavqeini yo'qotmaydi. Bu xazina o'sha davr yoshlari uchun yomon illatlar, zulmdan tiyilishni targ'ib etsa, hozirgi davr yoshlari uchun axborot hujumlaridan, moddiy boylikni quvish natijasida kelib chiqadigan ma'naviy bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi. Biz yoshlarimiz ongiga haqiqiy boylik kitob va ma'naviyat ekanligini, muvaffaqiyat faqat mansab emas, boshqalarga tegadigan foydamiz ekanligini, vatanparvarlik shunchaki balandparvoz gaplar emas, balki asar qahramonlari singari adolat va mardligimiz ekanini singdirishimiz lozim. Navoiy asarlarini o'qish-ma'naviy kamolot sari ilk qadam ekanligini unutmasligimiz lozim.

Shaxnoza MAMATQULOVA, 2-maktabning ona tili va adabiyot o'qituvchisi.

G'afur G'ulom she'rlaridagi ustuvor g'oya:

MEHNAT – HAYOT MAZMUNI



G'afur G'ulom o'zbek adabiyotida mehnatni ulug'lagan, oddiy inson hayotini yuksak badiiy darajada tasvirlagan ijodkorlardan biridir. Uning she'rlarida mehnat faqat tirikchilik manbai sifatida emas, balki insonning ma'naviy kamoloti, jamiyatdagi o'rni va qadr-qimmatini belgilovchi asosiy mezon sifatida talqin etiladi. Shoir ijodida mehnatsevarlik mavzusi chuqur ijtimoiy va axloqiy mazmunga ega.

G'afur G'ulom uchun mehnat – bu majburiyat emas, balki insonni inson qiladigan fazilatdir. U o'z she'rlarida mehnat qilayotgan oddiy odamlarni – dehqon, ishchi, hunarmand va ziyolilarni katta hurmat bilan tasvirlaydi. Shoir nazariya mehnat insonni ulug'laydi, unga hayotda mustahkam tayanch beradi. Bu g'oya uning ko'plab she'rlarida yetakchi o'rin egallaydi.

Shoir mehnatni hayot bilan

chambarchas bog'lab tasvirlaydi. Mehnat bor joyda harakat, rivoj va umid bor. G'afur G'ulom mehnatsevar insonni kelajakka ishonch bilan qaraydigan, jamiyat uchun foydali shaxs sifatida ko'rsatadi. Uning satrlarida dangasalik va loqaydlik keskin tanqid qilinadi, chunki bunday illatlar insonni ham, jamiyatni ham orqaga tortadi.

G'afur G'ulom mehnatsevarlikni insoniy fazilatlar – sabr, matonat va mas'uliyat bilan bog'laydi. Uning qahramonlari mehnat jarayonida qiyinchiliklardan qo'rqmaydi, aksincha, ularni hayot sinovi sifatida qabul qiladi. Shoir ana shu ruhiy bardoshlikni ulug'laydi va o'quvchini ham shunday bo'lishga chorlaydi.

Shoir she'rlarida mehnat va jamiyat munosabati alohida o'rin tutadi. Mehnatsevar inson jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rsatiladi. G'afur

G'ulom uchun mehnat – bu faqat shaxsiy manfaat emas, balki ijtimoiy burch hamdir. Inson o'z mehnati bilan jamiyatga foyda keltirishi, boshqalarga namuna bo'lishi lozim.

G'afur G'ulom ijodida mehnatsevarlik mavzusi vatanparvarlik g'oyasi bilan ham chambarchas bog'langan. Shoir Vatanga bo'lgan muhabbatni quruq shiorlar orqali emas, balki halol va fidokorona mehnat orqali ifodalaydi. Uning nazariya, yurtga xizmat qilish – bu eng avvalo mehnat qilish demakdir. Bu ustuvor g'oya uning "Toshkentlik paxtakor do'stlarga" she'rida ham yaqqol namoyon bo'ladi:

*Va da va da bilan
hamisha go'zal,
Butun yurt otlandi
terim ishiga.
G'animat fursatlar
ishni qilar hal,
Beg'amlik yarashmas
ishchan kishiga.*

Bugungi kunda ham G'afur G'ulom she'rlarida ilgari surilgan mehnatsevarlik g'oyasi o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Zamonaviy jamiyatda tez natija va oson yo'l izlash odati kuchaygan bir paytda, shoirning mehnatni ulug'lovchi fikrlari, ayniqsa, dolzarbdir. Uning asarlari yosh avlodni sabrli, mas'uliyatli va tirishqoq bo'lishga da'vat etadi.

Diifuza ABLAKULOVA, Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi.

Замонавий китобхонлик

«МУТОЛАА» ФЙДАЛАНУВЧИЛАРИ 1,4 МИЛЛИОНДАН ОРТДИ

«Мутулаа» – энг сара китобларнинг электрон, аудио ҳамда видео шаклидаги сифатли ва тизимли платформаси ҳисобланади. Бугунги кунда мазкур тизим Ўзбекистонда китобхонлик маданиятини ривожлантиришга қаратилган замонавий ташаббус демакдир.

Лойиҳа ёш авлодни китоб ўқишга рағбатлантириш, миллий ва жаҳон адабиёти дурдоналарини кенг оммага тақдим этиш орқали китобхонлик муҳитини янги босқичга олиб чиқиш мақсадида Ёшлар ишлари агентлиги томонидан ташкил этилган. Кузатувчилар телефонига «Мутулаа» иловасини юклаб олиш орқали 3000 дан ортиқ электрон ва аудио китобларни кўлга киритишлари ҳамда уларни мутулаа қилишлари мумкин.

– «Мутулаа» икки йил давомида миллионлаб китобхонларни бир гоа атрофида бирлаштириб, синовлардан шараф билан ўтди, – деди Ёшлар ишлари агентлиги

директори Аlisher Саъдуллаев. –Платформада 450 кундан ортиқ узлуксиз мутулаа қилган китобхонларнинг пайдо бўлиши оддий бир рақам эмас, бу шаклнаётган янги маданиятдир. Биз замон билан ҳамнафасликни танладик. Сунъий интеллект имкониятлари, асарларнинг визуал талқини – буларнинг бари чалғитиш учун эмас, балки тафаккурни кенгайтириш учун хизмат қилади. Мақсадимиз – китобни севганларни кўллаб-қувватлаш, севиб улгурмаганларни эса аста-секин бу ёрқин оламга етаклашдир.

– Бугунги кунда юртимиз аҳолисини китоб ўқишга

кенг жалб этишга қаратилган «Мутулаа» лойиҳаси фойдаланувчилари 1,4 миллиондан ортиди, – деди «Мутулаа» иловаси медиа бўлими раҳбари Жасурбек Анваров. – Ҳозирда «Мутулаа» ижодкорлари томонидан янги услубда тайёрланган видео-китоблар ҳам тақдим этилмоқда.

Лойиҳа миллий ва жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини электрон ва аудио форматларда жамлайди ва улардан бепул фойдаланиш имкониятини яратди. Ёшларни қизиқтириш учун китобларнинг мазмуни асосида янги услубда тайёрланган видео-китоблар тақдим этилади. Китоблар замонавий технологиялар ёрдамида рақамлаштирилиб, кенг кўламли аудитория учун очик қилинади.

Лойиҳа ўз фаолиятини махсус ишлаб чиқилган «Му-

толаа» мобил иловаси ҳамда YouTube, инстаграм ва телеграм платформалари орқали амалга оширмоқда. Фойдаланувчиларга китобларни ўқиш ва тинглаш, видео-китобларни кўриш ва янгиликлардан хабардор бўлиш имконияти яратилган. Мазкур лойиҳа китобхонлик маданиятини оммалаштириш, ёшларнинг интеллектуал ривожланишини кўллаб-қувватлаш ҳамда уларнинг китоб ўқишга бўлган қизиқишини оширишни кўзда тутди.

«Мутулаа» лойиҳаси ёшлар учун интеллектуал муҳит яратиш, уларни ўз ҳаётларини бойитишга қорловчи ноёб ташаббусдир. Китоб ўқиш энди нафақат фойдали, балки қулай ва замонавий форматда ҳам амалга оширилади.

Гулноза БОБОЕВА, ЎЗА муҳбири.

Кураш ишқибозлари учун

Халқаро мусобақалар тақвими тасдиқланди

Халқаро кураш ассоциацияси (ИКА) томонидан 2026 йил учун халқаро мусобақалар ва таълим тадбирлари ни қамраб олган расмий тақвим режаси тасдиқланди. Унга кўра, 2026 йил давомида ИКА байроғи остида 50 дан ортиқ халқаро кураш тадбирлари ўтказилиши режалаштирилган.

2026 йилги тақвимдан Осиё, Европа, Африка ва Пан-Америка чемпионатлари ўрин олган бўлиб, ушбу мусобақаларда дунёнинг 80 дан ортиқ давлат спортчилари иштирок этиши kutilmoqda. Онлайн ва гибриформатдаги курслар орқали эса таълим дастурларида 50 дан ортиқ мамлакатнинг кураш спорти мутахассислари қамраб олинishi

белгиланган.

Жорий йил кураш муҳлисларини 2 та жаҳон чемпионати, қитъалар чемпионати, WSP рейтинг мусобақалари ҳамда "CISM Kurash Challenge Cup" турнирлари кутиб турилади. Шунингдек, World Nomad Games (Исикқўл, Қирғизистон) ҳамда ХХ ёзги Осиё ўйинлари дастуридан курашнинг ўрин олгани унинг оммавийлигини янги босқичга кўтаришда муҳим аҳамият касб этади.

Франциянинг Париж шаҳрида ҳар йили ўтказиб келинаётган Ўзбекистон Республикаси Президенти соврини учун халқаро турнир ҳам 2026 йилги тақвим режасидан жой олган. Ушбу мусобақа Европа қитъасида курашнинг халқаро нуфузи-



ни янада оширишга хизмат қилади.

Халқаро кураш ассоциацияси ва унинг тизимидаги бирлашмалар томонидан амалга ошириб келинаётган таълим дастурлари 2026 йилда ҳам изчил давом этирилади. Йил давомида 12 та халқаро семинар, 6 та лицензиялаш ҳамда 5 та ҳакамлик курси ўтказилиши режалаштирилган. Ушбу дастурлар орқали 500 нафардан ортиқ мураббий ва

ҳакам халқаро стандартлар асосида тайёрланиши кўзда тутилган.

Жорий йилда назарда тутилган тадбирлар курашнинг глобал спорт тури сифатида ривожлантиришга қаратилган изчил ва тизимли стратегияни акс эттиради. Географик қамров, мусобақалар сони кураш фаолиятида муҳим босқич бўлиши kutilmoqda.

Тўлқин РЎЗИЕВ, ЎЗА муҳбири.



Асп вабоси

Гиёҳвандликка йўл берманг

Ота-она учун фарзанднинг гиёҳванд бўлиб қолганини билиб қолиши нечоғли оғир мусибатдир! Шунда ота-она ўз боласига бу йўлдан чиқиб кетиши учун жудаям кўп сазой ҳаракатлар қилишга уринади. Бу ҳаракатлар ҳар доим ҳам наф берармикан? Чунки гиёҳвандлик йўлига кириб қолган инсонлар – бемор ҳисобланади. Касални даволагандан кўра, унинг олдини олган маъқул. Гиёҳвандликни олдини олишда, энг аввало, фарзанднинг тарбияси катта аҳамиятга эгадир.

«Фарзанд тарбияси қачондан бошланиши керак?» – деган саволга, кўпчилик болаликдан деб жавоб беради. Аслида эса, фарзанд кўришни режалаштирган ота-она бўлмиш инсонларнинг ўзидан бошланади. Булажақ ота-она ўз фарзандини моддий ҳамда маънавий томондан тарбиялашга тайёр бўлиши керак. Она қорнидаги бола тўғри ривожланиши учун асабийлашмаслиги, табиат кўйида гўзал манзараларни томоша қилиши, китоблар мутолаа қилиши, вақти-вақти билан дам олиб туриши ва албатта, соғлом овқатланиши зарур. Бу борада ота бўлмиш эса унга шу шaroитларни яратиб бериши керак.

Бола туғилиши билан уни дарҳол ўз онасининг бағрига қўйилиши беҳиж эмасдир. Шу пайтдан бошлаб бола билан она орасидаги меҳр туйғулари

шакллана бошлайди. Болага чақалоқлик давридан бошлаб, катта одам билан гаплашгандек муносабат қилиш керак экан. Бола тарбиясида, улар билан суҳбатлашиш, ҳамма саволларига жавоб бериш, руҳан қувватлаб туриш зарур. Кўпинча ишдан келган ота-оналар бола билан мулоқот қилишни хоҳламайди. Бола эса, қуни билан ота-онасини кутиб, бўлган воқеаларни гапириб бергиси ҳамда руҳан қувватланиши хоҳлайди.

Агар ота-оналар болага ўз вақтларидан ажратмасалар, унда бола кўчадаги одамлардан руҳий таянчини қидиради. Ана шу пайтда болаларнинг гиёҳвандлар қўлига тушиб қолмаслигига ким қафолат беради. Ота-оналар ўз боласи учун вақтини ажратмаган тақдирда, агар бола гиёҳвандлик йўлига кириб қолганда, бутун умрини охиригача шу болага бағишлайди, лекин унда кеч бўлган бўлади. Айниқса, ўсмирлик даврида болалар катта эътибор талаб қилади. Улар ота-онасининг томоша қилиши, китоблар мутолаа қилиши, вақти-вақти билан дам олиб туриши ва албатта, соғлом овқатланиши зарур. Бу борада ота бўлмиш эса унга шу шaroитларни яратиб бериши керак.

Бола туғилиши билан уни дарҳол ўз онасининг бағрига қўйилиши беҳиж эмасдир. Шу пайтдан бошлаб бола билан она орасидаги меҳр туйғулари

шакллана бошлайди. Болага чақалоқлик давридан бошлаб, катта одам билан гаплашгандек муносабат қилиш керак экан. Бола тарбиясида, улар билан суҳбатлашиш, ҳамма саволларига жавоб бериш, руҳан қувватлаб туриш зарур. Кўпинча ишдан келган ота-оналар бола билан мулоқот қилишни хоҳламайди. Бола эса, қуни билан ота-онасини кутиб, бўлган воқеаларни гапириб бергиси ҳамда руҳан қувватланиши хоҳлайди.

Агар ота-оналар болага ўз вақтларидан ажратмасалар, унда бола кўчадаги одамлардан руҳий таянчини қидиради. Ана шу пайтда болаларнинг гиёҳвандлар қўлига тушиб қолмаслигига ким қафолат беради. Ота-оналар ўз боласи учун вақтини ажратмаган тақдирда, агар бола гиёҳвандлик йўлига кириб қолганда, бутун умрини охиригача шу болага бағишлайди, лекин унда кеч бўлган бўлади. Айниқса, ўсмирлик даврида болалар катта эътибор талаб қилади. Ҳар бир ота-онага фарзанди билан суҳбатлашиб, уни ўрганиб, нималарга қизиқини, кўнглида қандай кечинмалар ётганини билиш ҳар қандай нохуш ҳолатларнинг олди-

ни олишга ёрдам беради. Шунга қараб, албатта фарзанднинг қизиқишларини илғаш, қобилиятини ривожлантириш, ҳар доим унга ишонши ва эътибор бериш керак. Фарзандлар ўз ота-оналаридан шундай эътиборни кутади.

Оилада ҳеч қачон фарзанднинг бўш вақти бўлмаслигини назорат қилиш, ҳар бир дақиқанинг қадрлигини унинг онгига сингдириб бориш керак. Фарзанд меҳнаткаш бўлиши учун уни ҳар хил юмушлар билан банд қилиш ва албатта, спорт машғулотларига қатнашишини таъминлаш лозим. Шунда ундан омадли, соғлом фикрлайдиган, етук инсон шаклланади. Фарзанд тарбиясида «меъёр» деган тушунча ҳам шаклланиб бориши керак.

Яъни фарзандингизни ҳар бир хоҳишини дарҳол бажариш ҳам, жудаям эркалитиб юбориш ҳам нотўғри. Гиёҳванд моддалар савдоси билан шуғулланувчи инсонлар, айниқса, шунақа «эркатой» фарзандларни кетидан овға тушишади. Қармоққа тушганлар эса, ўша хонадоннинг баракасини учиради. Ота-она эса, фарзанд доғида қуйиб қолиши мумкин. Фарзандлар тарбиясида уларга ота-боболарнинг ютуқлари ҳақида гапириб бериш, авлодлар давомчиси сифатида ўрнақ бўлишлари кераклигини онгига сингдириш ҳам катта аҳамиятга эга. Фарзандга ҳар доим иккита йўл борлигини – биринчиси, осон, лекин охири ёмон, иккинчиси, қийин, лекин охири туганмас ажишлик эканлигини тушунтириб бориш керак. Инсон бахтли бўлиши учун энг аввало, билимга интилиши, меҳнаткаш бўлишга ҳаракат қилиши ҳамда ўз орзу-ниятларига етишишга ишонishi керак! Ўзи севган ишида ишлаши, ўзи хоҳлаган оиласини яратиши керак. Бахт–бу бахтсизликни енгишдир!

Т. МАХМАДАЛИЕВ, республика саломатлик ва стратегик ривожланиш институтининг туман бўлими вақти.

А. РАХМАТУЛЛАЕВ, врач нарколог.

MUASSISLAR:
Xalq deputatlari
Muzrabot tumani Kengashi
va tuman hokimligi

Muharrir
Abdusalom YO'LDOSHEV

Tahririyat manzili:
191300. Muzrabot tumani, Xalqobod qo'rg'oni,
Amir Temur ko'chasi, 38-uy.
Telefon: (+998) 99 671 57 58.

Gazeta 2010-yil 9-aprelda Surxondaryo viloyati Matbuot va axborot hududiy boshqarmasida 11-010 raqami bilan qayta ro'yxatga olingan. ISSN 2181-7006.

Buyurtma G-1600 nusxada bosildi. Qog'oz bichimi A-2. Hajmi 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Nashr indeksi-473.

Gazeta tahririyat kompyuterida terildi va sahifalandi. Sahifalovchi B.Shoyardonov. Navbatchi muharrir A.Yo'ldoshev. Navbatchi O.Hakimova.

Gazeta «Surxon tongi» va «Zarya Surxana» gazetalarini tahririyati bosmaxonasida chop etildi. Korxonada manzili: 190100, Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy. Topshirish vaqti – 14-00. Topshirildi – 14-00